



## OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING ASOSIY AVFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI

Norqulova D.R

Bo'riyev B.B

Botirov J.B

"Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Qarshi filiali, talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda Oliy ta'lימי raqamlashtirishning asosiy avfzalliklari hamda ta'limda yangi zamonaviy metodologiyalarni raqamlashtirish asnosida ko'rish va tadbiq etish jarayonlarini amalga oshirish. Talabalarning bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda yangi texnik va dasturiy ta'minotlardan unumli foydalanishlik hamda raqamlashtirilgan oly ta'limda erishilayotgan istiqbolli natijalarni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, oly ta'lim, fan, Individual ta'lim, sifatli ta'lim, Virtual laboratoriylar, interaktiv darsliklar, Global munosabatlar, Adaptiv ta'lim dasturlari.

**Kirish:** Raqamlashtirish ta'lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, axborot almashinish va tahlil qilish, o'zaro hamkorlik va masofaviy muloqot qilishni soddashtirdi. Raqamlashtirishning imkoniyatlari va samaradorlikni oshirish, talabalar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta'lim va yangi o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish universitetlarni, o'quv dasturlarini, professor-o'qituvchilarni, xodimlarni va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarining faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar talabarni motivatsiya va yo'lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta'lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga quydagi imkoniyatlarni beradi:

**Individual ta'lim:** Har bir talaba o'zining mahorati va tushunarliyiga ko'ra dasturlangan ta'lim olish imkoniga ega bo'lib, bu esa shaxsiy taraqqiyot va ta'limi o'rganishga imkon beradi.

**Virtual laboratoriylar va interaktiv darsliklar:** Talabalarga amaliy bilim olish uchun virtual laboratoriylar, interaktiv darsliklar va sinovlar orqali darsning nazariy qismiga qo'shimcha amaliyot qoshish imkonini beradi.

**Global munosabatlar va hamkorlik:** Talabalar boshqa mamlakatlardagi talabalar bilan aloqalar o'rnatish, fikrlar almashish va hamkorlikda ishlash imkonini beradi.

**Texnologik innovatsiyalar va texnologik zamonaviylik:** Raqamlashtirilgan ta'lim, yangi texnologiyalarni o'rganish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash va talabarni muasirlashtirish imkonini beradi.



Adaptiv ta'limga dasturlari: Talabalarning tajribalariga va bilim darajasiga ko'ra ta'limga moslashtirish va shuningdek, dasturlangan ta'limga dasturlari orqali har bir talabaning o'zlashtirilgan ta'lmini ta'minlash imkonini beradi.

Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko'rsatkichlarini ko'paytirish hamda turli vositalar orqali ma'lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo'llagan universitetlar nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar orqali qo'shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisabatan ustunlik shakllanadi.

Mazkur yo'nalishda «Elektron universitet» (E-University) tizimini joriy etgan holda ochiq, shaffof, sub'yekтивlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan ta'limga muhitini yaratish vazifasi ko'rsatilgan. Shunga asosan, universitetlarda tizimli ishlar amalga oshirilib, bir qator elektron tizimlar ishlab chiqildi va joriy etildi. Jumladan, talabalar uchun har qanday masala yuzasidan elektron murojaat qilish imkoniyati yaratildi hamda yagona darcha tamoyili asosida faoliyat yurituvchi maxsus Talabalarga xizmat ko'rsatish markazi joriy etildi, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari hamda ilmiy rahbarlarni tanlash elektron tizimi yaratildi, to'lov-shartnomasini oson shakilda elektoron ravishda yuklab olish to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni onlayn nazorat qilib borish dasturiy mexanizmi ishga tushirildi.

Ta'limga jarayoniga bog'liq eng asosiy natija masofaviy ta'limga platformasi va elektron baholash dasturiy tizimi joriy etildi. Universitetlarda masofaviy ta'limga platformasi (<http://distant.tsul.uz>) dunyo bo'yicha e'tirof etilgan "Moodle" (obektga yo'naltirilgan dinamik ta'limga muhiti) yaratish tizimida bo'lsada, ushbu tizim ancha takomillashtirildi. Jumladan, turli ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish uchun videochat (Big Blue Button) va "Zoom" dasturiy vositasi, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini topshirish hamda ularni barcha qismlarini antiplagiat tizimidan o'tkazish mexanizmlari integratsiya qilindi, ta'limga platformasiga 21 mingdan ortiq elektron kontentlar va menyular (videoma'ruza, audio kutubxonalar, elektron abaiyotlar, kazus materiallar) joylashtirildi.

Shuningdek, baholash jarayoni ham to'liq shaffof va adolatli bo'lib, bunda nazorat ishlarini electron dasturiy tizim orqali topshirilishi va baholanishi yo'lga qo'yildi. Mazkur dasturiy tizimda ilmiy nazorat yozma ishlarini talaba tomonidan elektron shaklda topshiriladi, ya'ni tizimga yuklanib undan so'ng avtomatik ravishda shifrlanadi va tegishli kafedraga tekshirish uchun elektron shaklda jo'natiladi. Kafedralarda mazkur ishlar professor-o'qituvchilar o'rtasida taqsimlanib tizimning o'zida tekshiriladi, baholanadi hamda qo'yilgan baho yuzasidan sharh yoziladi, ya'ni nima sababdan shunday baholangani hamda talaba qanday kamchiliklarga yo'l qo'ygani ko'rsatiladi. Tekshirilgan ishning bahosi va ishga yozilgan taqriz talabaning shaxsiy kabinetida ko'rindi.

Shuni aytish kerakki, hozirgi vaqtida talabalar oldingilarga qaraganda nihoyatda farq qiladi. Endilikda ularning zamonaviy talablari va extiyojlari mavjud bo'lib,



zamonaviy oliy ta'limgiz xizmatini ularga munosib tarzda bo'lishlari lozim. Bugungi kunga kelib, rivojlanayotgan dunyoning asosiy talabiga ko'ra ta'limgiz tashkilotlari, ayniqsa oliy ta'limgiz tashkilotlari o'z faoliyatini rivojlantirishda quyidagi kabi yangi texnologiyalarga tayanishi lozim: moslashuvchan o'qitish, sun'iy intellekt, virtual yoki kibermakon, kengaytirilgan voqelik. Shu o'rinda, oliy ta'limgiz tashkilotlari bosiqma-bosqich "Universitet 4.0", ayrim hollarda "raqamli universitet" yoki "aqlli universitet" deya tavsiflanuvchi konsepsiaga o'tishi zarur.

Shu bois, zamonaviy raqamli universitet talabalarga va o'qituvchilarga o'qitish jarayonini va zamonaviy kommunikatsiyalarini tashkillashtirish, byurokratiyadan xoli tizimli avtomatlashtirilgan raqamli qayd va tahlil qilish, individual ta'limgiz trayektoriyalarini, to'g'ri savodli tuzish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tegishli muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirishga yordam beradigan qulay imkoniyatlar va tezkor xizmatlar taqdim qilishi lozim. Oliy ta'limgiz muassasalarida raqamlashtirish jarayonlari holatini tubdan baholash hamda oliy ta'limgiz muassasalarining ko'rsatkich reytingini aniqlash uchun maxsus axborot tizimi ishlab chiqilib, nazorat test rejimida ishga tushirildi.

Amaldagi axborot tizimi oliy ta'limgiz muassasalarida AKT bilan qamrov darajasini, joriy etilgan axborot dasturiy tizimlari hamda elektron xizmatlarning holatini, AKT sohasidagi inson kapitaliga qaratilganligi, rasmiy veb-saytlarini yuritish darajasini, axborot xavfsizligining ta'minlanganlik holatini va boshqa shu kabi tashkiliy masalalarni tubdan nazorat qilish, baholash va reytingini yuritish uchun mo'ljallangan tizimli ishlanmalar.

Oliy ta'limgiz Vazirlikning tegishli buyrug'i bilan oliy ta'limgiz muassasalarining rahbar o'rnbosarlaridan biriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirishga mas'ul o'rnbosarlar vakolati yuklatildi.

Mazkur vaqt oralig'i davomida 41 ta oliy ta'limgiz dargohlarining rahbarlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirishga mas'ul o'rnbosarlarining raqamlashtirish bo'yicha olib borayotgan ishlari, kelgusidagi rejalar bo'yicha taqdimotlari bo'lib o'tdi.

E'tiboran, zamonaviy universitetning barcha bog'liq jarayonlari raqamli texnologiyalar asosida barpo qilinishi lozim. Bu abituriyentlar bilan ishslash, o'quv jarayoni va ta'limgiz sifatining tahlilidan boshlab bitiruvchilarning ishga joylashishi monitoringi va ishda ko'tarilish bilan tugaydigan katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarishga o'tishni talab qiladi.

Xulosa Texnologiyalarini ta'limgiz jarayonlarida samarali qo'llash. Talabalar uchun onlayn resurslar, ta'limgiz dasturlari, o'quv video va interaktiv materiallar bilan o'rganish imkoniyatlarini yaratish, talabalarga nazariy bilimlarni o'rganganlarini amaliyotda qo'llab-quvvatlash, savollar orqali o'rganish va muhokama olib borish uchun misollar va mashg'ulotlar tayyorlash eng yaxshi usullardan biridir.

Talabalarga kutubxonadan foydalanish, qo'shimcha adabiyotlar resurslaridan, elektron darsliklar va online kurslar orqali o'rganishlarini o'rnatish. Bu,



o'quvchilarning mustaqil o'rganishini va qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev R.R. Digitalization of higher education: prospects and risks. Law and Practice: 2022.

2. Pardayeva G.A. Masofaviy o'qitish sharoitida faoliyat yuritadigan o'qituvchi faoliyatining rol-modeli. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va telekommunikasiyalarini zamonaviy muammolari va yechimlari respublika ilmiy-texnik anjuman. 2020 yil 17-18 aprel, Farg'ona. B. 653-656.

3. Pardayeva G.A., Qaxramonova S.J. Axborot texnologiyalarini rivojlantirishning ba'zi masalalarining afzalliklari va tavsiyalar. Ijtimoiy sohalarni raqamlashtirishda innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami 2020 yil 29-30 aprel. Qarshi. B.197-198.